



DESIGN OF SOCIO-CULTURAL TECHNOLOGIES IN THE TRANSFORMATION OF SOCIETY

Serobjon Yuldashev

*Doctor of Philosophy (DSc), Associate Professor
Fergana State University
Fergana, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Society, transformation, social technology, cultural technology, new society, design, youth.

Received: 22.04.25

Accepted: 24.04.25

Published: 26.04.25

Abstract: This article examines the manifestation of social technology and socio-cultural technologies in the transformation of society. This, in turn, creates the need for social design. The transformation of society reveals the importance of design technology as a distinctive feature of the renewing Uzbekistan in state and public administration.

JAMIYAT TRANSFORMATSIYALASHUVIDA IJTIMOIY-MADANIY TEXNOLOGIYALARНИ LOYIHALASHTIRISH

Serobjon Yuldashev

*Falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
Farg'onan davlat universiteti
Farg'onan, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Jamiyat, transformasiya, ijtimoiy texnologiya, madaniy texnologiya, yangi jamiyat, loyihalashtirish, yoshlar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyat transformatsiyalashuvida ijtimoiy texnologiya hamda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning namoyon bo'lishi tadqiq etilgan. U esa o'z navbatida ijtimoiy loyihalashtirish zaruratini vujudga keltiradi. Jamiyatni transformatsiyalashushi davlat va jamiyat boshqaruviga yangilanayotgan O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari sifatida loyihalashtirish texnologiyasi muhim ahamiyatga ega ekanligi ochib berilgan.

ПРОЕКТИРОВАНИЕ СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТРАНСФОРМАЦИИ ОБЩЕСТВА

Серобжон Юлдашев

*Доктор философских наук (DSc), доцент
Ферганский государственный университет
Фергана, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Общество, трансформация, социальные технологии, культурные технологии, новое общество, проектирование, молодежь.

Аннотация: В данной статье исследуется проявление социальных технологий и социокультурных технологий в трансформации общества. Это, в свою очередь, порождает необходимость социального проектирования. Трансформация общества раскрывает важность технологии проектирования как особенности обновляющегося Узбекистана в государственном и общественном управлении.

Kirish. Jamiyatni transformatsiyalashuvi davlat va jamiyat boshqaruvini ijtimoiy-madaniy sohalari, shuningdek yangilanayotgan O‘zbekistonning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida loyihalashtirish texnologiyasi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Buning uchun eng avvalo ilm-fan rivojlanishi zarur. O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida bu jarayonning muhim ekanligini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston poydevorini yaratishda ilm-fan, ta’lim-tarbiya, ma’naviy va madaniy faoliyat sohalarini keng rivojlantirish va yangi bosqichga olib chiqish uchun asos bo‘lmoqda[1.32.]”, deb ta’kidlaydi. Ijtimoiy loyihalashning mohiyati kelajakda muddodagi, ko‘ngildagi holatga erishishdan iborat. Jamiyatda ijtimoiy loyihani yaratuvchisi sifatida davlat tashabbuskor bo‘lib o‘z oldiga aniq maqsadlarni qo‘yadi va uning ixtiyorida loyihani amalga oshirish uchun kerak bo‘lgan zaruriy resurs manbani-mablag‘larni sarflaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XI asrda yashab o‘tgan Yusuf Xos Hojib “Qutadg“u bili” asarida “Hukmdorlarning qaysi birida bilim bo‘lsa, bilimga e’tibor kuchli bo‘lsa, o‘sha yaxshi, ezgu ishlarni amalga oshiradi, mamlakatda qonun-tartibotlarga, adolat va bunyodkorlikka rivoj beradi”[2.245.], deb ta’kidlaydi.

Amerikalik faylasuf K.Popper ijtimoiy texnologiyalarni nazariy xulosalarni amaliy maqsadlarda qo‘llash usuli sifatida ta’riflagan[3.65.] va bu hodisaning xolistik, utopik va qisman kabi turlari mavjudligini ko‘rsatgan. Ijtimoiy-iqtisodiy xarakterdagи vazifalarni hal etish (boshqaruvni tashkil etishni, ijtimoiy tuzilmani takomillashtirish, jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatish va boshqalar) uchun ijtimoiy-islohotchilik faoliyatini amalga oshirishdir. Ijtimoiy texnologiya, K.R.Popperning fikricha, maqsadlarni belgilashda hushyorlik, nima bo‘lishi

mumkinligini tushunish bilan ajralib turadi. Mavjud vositalar yordamida, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarni hisobga olgan holda, yangiliklarning ehtiyyotkorligi va bosqichma-bosqichligi, ularni doimiy nazorat qilish, zarurat tug‘ilganda ham belgilangan maqsadlarni, ham ularni asoslovchi nazariy tamoyillarni qayta ko‘rib chiqish va tuzatish, kutilmagan oqibatlarni o‘z vaqtida bartaraf etish imkonini bergen holda erishildi.

Bolgar faylasufi N.Stefanov ta’kidlaganidek, “Inson uni o‘rab turgan jarayonlarga faol va maqsadli munosabatda bo‘lgan joyda, u tabiiy va ijtimoiy muhitni ongli va rejali ravishda o‘zgartirishga intiladi, bu esa texnologiya mayjud ekanligini bildiradi”[4.182.]. Jamiyat transformatsiyalashuvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni loyihalashtirish muhimligi siyosiy, madaniy va ijtimoiy loyihalashtirish kabi turlarga bo‘lingan xolda amalda bo‘ladi. Xususan ijtimoiy loyihalashtirish – faoliyat turi, qaysiki ijtimoiy sohani rivojlantirish bilan bevosita aloqada, ijtimoiy ishlarni samaradorligini tashkil etish, turli-tuman ijtimoiy muammolarni bartaraf etish masalalarini o‘z ichiga olishi demakdir. Bunday faoliyatni jamiyatdagi samarasini ko‘plab mamlakatlar amaliyotida yaxshi namoyon bo‘ldi, bugun loyihalash texnologiyalarini qo‘llamasdan turib davlatning ijtimoiy siyosatini tasavvur qilish qiyindir.

Butun dunyoga jamiyatni farovonligi bilan ma’lum bo‘lgan Finlandiya tajribasida shunday deyiladi: “Butun jahonda o‘zgarishlarga sabab bo‘layotgan globallashuv biz uchun e’tiborga olishimiz kerak bo‘lgan yangidan yangi masalalarni tayyorlamoqda. Ularni hal etishda biz uchun yangi innovatsiyalar kerak bo‘lishi mumkin. Biz kelajakda ham bir-biriga dushman bo‘lмаган, aksincha, ehtimol hamkor bo‘lgan farovon jamiyat va raqobatbardoshlikni birlashtirishimiz kerak”[5.11.]. Demak jamiyatdagi barcha kuchlarni qarama-qarshi qo‘ymasdan bir maqsad sari yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Jamiyat transformatsiyalashuvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni loyihalashtirish zarurati vujudga keladi. Shunga ko‘ra ijtimoiy loyihalashtirish – bu ijtimoiy sohada kutilgan natijalarga erishish texnologiyasidir. Bizningcha, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar aynan yuqorida fikrlarni tasdig‘idir. Chunki, ko‘lam miqdor jihatdan juda ham keng va o‘ylovchi odamlar oldiga jozibador vazifani – ijtimoiy amaliyotda loyihalash tafakkurini (yoki loyihalar bilan fikr yuritish)ni tasdiqlashni qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Jamiyatni ilmiy boshqarishning ijtimoiy-madaniy loyihalashtirishning mohiyati bugun va ertangi jamiyat turmush madaniyatini xalq orzu qilgandek holatga erishtirishdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Asosiy qonunimiz negizida yaratilgan Harakatlar strategiyasi bugungi kunda jonajon Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarishda, innovatsion va industrial rivojlanish sari odimlashda beqiyos o‘rin egallamoqda.

Xalq bilan doimiy muloqotda bo‘lish, odamlarning tashvish-muammolarini hal etish, ularni rozi qilish faoliyatimiz mezoniga aylanmoqda”[6.]. Yoshlarni tashabbuskorligi, innovatsion g‘oyalarga moyilligi ijtimoiy-madaniy texnologiyaning loyihalashtirish texnologiyasining ishlab chiquvchilari sifatida o‘z oldiga aniq maqsadlarni qo‘yadi va uning ixtiyorida loyihalarni amalga oshirish uchun talab qilinadigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malaka hamda aniq-konkret strategik maqsad bo‘lishini taqozo etadi. Chunki har qanday sohani tadqiq etish va boshqarishda mukammal nazariy hamda amaliy bilimlar, madaniy ko‘rsatkichlar hamda kundalik hayotimizni bir butun yaxlit holda idrok etishimizga yotadi. Bu o‘z navbatida strategik maqsadni muayyan texnologiyalar natijadorligini belgilanishi bilan ahamiyatlidir.

Ijtimoiy-madaniy loyihalashtirishning jamiyatda, xususan yoshlarni faoliyatining ijtimoiylashuvida asosiy vazifasi – ijtimoiy muhitni o‘zgarishi singari innovatsiyalarni tadbiq etish, yoshlarning faolligini tartibga solish hamda ijtimoiy-madaniy loyihalashtirish texnologiyasi innovatsion faoliyat bilan uzviyligidir. Shunga ko‘ra, innovatsiya - bu oddiy yangilanish yangilikni konstruklashtirish va ularni amaliyotda o‘z ijobjiy samarasini bergen tajribalarni qaytadan anglash asosidagi ongli faoliyatdir.

Tahlil va natijalar. Jamiyatni ilmiy boshqarishda ijtimoiy-madaniy loyihalashtirish texnologiyasini qo‘llash turli innovatsion yondoshuvlarda namoyon bo‘ladi. Ular vaqt, muayyan tarixiy davr va muayyan jamiyat a’zolarining birqalikdagi ijtimoiy-madaniy faoliyatlaridagi o‘rni, ta’siri va jamiyat falsafasini ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi.

Jamiyatni ilmiy boshqarishda ijtimoiy-madaniy loyihalashtirish o‘z navbatida davlatning siyosatida (qabul qilingan strategiyasida) ijtimoiy-madaniy islohotlarni talab etadi. Bu islohotlarni davlat bosh islohotchiligidagi amalga oshirilib ijtimoiy-madaniy sohani barqaror o‘sish holatiga keltirish maqsadida loyihalashtiriladi. Buni quyidagicha ifodalash mumkin, ya’ni strategik dasturlar yoki uzoq yillik konsepsiylar bilan belgilanishda namoyon bo‘ladi. Ularni amalga oshirish natijasida ijtimoiy-madaniy loyihalashtirish texnologiyasi innovatsion faoliyatda muayyan ko‘rinishlarini namoyon qiladi. Jamiyatdagi uzoqni ko‘zlangan ijtimoiy-madaniy loyihalarda ko‘p masalalar ijtimoiy islohotlar bilan uzviy bo‘lib, ular ham qayta ko‘rib chiqishni taqozo qiladi, konkret vaziyat, shart-sharoitga muvofiq bekor qilish yoki tekshiruv o‘tkazishga ehtiyoji, bu oliy darajadagi hokimiyat organining faoliyatining o‘ziga xosligi bilan bog‘liq. Ijtimoiy-madaniy loyihalashtirish jamiyatning kichik guruhlarining manfaatlariga talluqli, kundalik muammolarga yaqin joylashgan va umumsiyosiy sharoit, holatlarga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406-sen Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sen “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2017 yil 5 iyundagi PF-5106-sen “Yoshlarga oida davlat siyosati

samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni mazmun-mohiyati aynan yoshlarni davlat va jamiyatda o‘z faolligi va ijtimoiylashuvi uchun loyihalashtirish texnologiyasi bo‘la oladi. Ijtimoiy-madaniy loyihalar o‘zining tarixiy va madaniy zaruriyatidan kelib chiqqan holda o‘ziga xos xususiyatlari bilan alohida klassifikatsiyalanadi.

Xulosa. Jamiyatni ilmiy boshqarishda ijtimoiy-madaniy loyihalashtirish texnologiyasining ahamiyati:

Birinchidan, sayyoramiz aholisining yarmidan ko‘pi urbanizatsiyalashuv asosida turmush kechirishga o‘tishi bilan belgilanadi. Taraqqiyotimizning yangi bosqichida 2019 yil 10 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda, shuningdek mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda 2019 yil 1 iyulga qadar belgilangan tartibda, shu jumladan kompleks uy-joylar qurilishi hisobidan yangi shaharlar va yo‘ldosh-shaharlar tashkil etishni nazarda tutadigan O‘zbekiston Respublikasida 2030 yilgacha urbanizatsiyani rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasini kiritish[7.] belgilab berildi.

Ikkinchidan, jahon mamlakatlarida ta’lim tizimini jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida loyihalashtirish avvolo, zamonaviy jamiyat hayotida inson, uning ongu-tafakkuri va ijodiy faolligi birinchi darajaga chiqishidir. Ta’limda ijtimoiy-madaniy loyihalashtirishning mayjudligi shaxsning taraqqiyot ishlab chiqarish va ehtiyoj o‘rtasidagi chegaraning yo‘qolishi, inson faoliyatining birinchi galda rivojlanishining asosiy resursi sifatida bo‘lgan axborot va bilimlar bilan xarakterlananishidir. Axborotlashgan jamiyatga jadal o‘tib borayotgani yoki globallashib borayotgan jamiyat sifatida ta’riflanayotgan zamonaviy jamiyat texnologiyalarining modernizatsiyalashuvi loyihalashtirish ehtiyojini keltirib chiqarmoqda. Axborotlashgan jamiyatda axborot va bilim ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning fundamenti hisoblanadi. Uni to‘g‘ri boshqarish va loyihalashtirish bugungi kunda yoshlarni ijtimoiylashuvida asosiy o‘rin egallaydi.

Uchinchidan, jamiyatda yoshlar hayotining ijtimoiylashuvida ijtimoiy-madaniy loyihalashtirishni ahamiyati mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ustuvor islohotlardan biri sifatida dolzarb hisoblanadi. Ya’ni, mazkur jarayonlar o‘z ichiga fikrlar va qarashlar xilm-xilligiga imkoniyat yaratadigan, uni rag‘batlantiradigan, haqiqiy g‘oyaviy plyuralizm, ya’ni boshqa qarashlarni hurmat qiladigan yangi o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy loyihalashtirish texnologiyalarini yaratish singari jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan yoshlar ijtimoiylashuvida ijtimoiy-madaniy loyihalashtirishning ahamiyati – bu yoshlarni ijodiy yondashuvi talablaridan kelib chiqqan holdagi rejali faoliyat turidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тошкент. “Ўзбекистон”. 2022.
2. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиғ: (Билим саодати) / Абдуҳамид Пардаев табдили. Масъул мухаррир Манзар Абдулхайр – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019.
3. Поппер К. Открытое общество и его враги: в 2 т. М., 1992.
4. Стефанов Н. Общественные науки и использование технологии. М., 1976.
5. Илкка Тайпале. Финляндиянинг 100 та ижтимоий инновацияси./ Финляндия қандай қилиб Финляндия бўлди: сиёсий, ижтимоий ва майший инновациялар. – Тошкент.: “Sharq”, 2019.
6. Билимли авлод - буюк келажакнинг, тадбиркор ҳалқ - фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолотидир. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. // Ҳалқ сўзи, 2018 йил 8 декабрь.
7. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 11.01.2019 й., 06/19/5623/2461-сон.